

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “KIMSASIZ HOVLI” TO‘PLAMIGA KIRGAN HIKOYALARI MATNIDA PEYZAJNING MAZMUNI VA VAZIFASI

Choriyev Nurbek Jumanazar o‘g‘li

Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19092064>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev va uning hikoyalari tadqiq etilgan. Shuningdek, “Kimsasiz hovli” to‘plamidagi inson va uning atrofidagi tabiat tasviri haqidagi nazariy qarashlar ochib beriladi. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi ushbu durdona asarning asosini o‘quvchilarga yetkazish hamda adabiyotshunoslik sohasiga oz bo‘lsa-da hissa qo‘shishdir.

Kalit so‘zlar: peyzaj, hikoya, “Kimsasiz hovli”, vaqt va makon, xronotop, tabiat tasviri.

Annotation: This article explores Shukur Kholmirzayev and his stories. Also the theoretical views on the image of man and the surrounding nature in the “Kimsasiz hovli” collection are revealed. The primary objective of this research is to convey the essence of this masterpiece to readers and to make, even if modest, a contribution to the field of literary studies.

Keywords: landscape, story, “Kimsasiz hovli”, time and space, chronotope, description of nature.

Shukur Xolmirzayev — o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri, inson qalbini nozik his qilgan, hayotning oddiy manzaralaridan chuqur ma‘no topa olgan iste‘dodli yozuvchidir. Uning asarlarida inson va tabiat, mehr va sadoqat, or-nomus va vijdon kabi muqaddas tuyg‘ular o‘ziga xos badiiy joziba bilan tasvirlanadi. Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zining samimiyligi, hayotiyiligi va tabiiyligi bilan kitobxon qalbiga tez yo‘l topadi. Yozuvchi qahramonlari oddiy odamlar — dehqon, cho‘pon, qishloq kishilari bo‘lsa-da, ularning qalbida katta dunyo, katta orzu va katta iztiroblar yashaydi. Adib ana shu insoniy kechinmalarni sodda, ammo ta‘sirchan uslubda ifodalaydi. Uning hikoya va qissalarida tabiat manzaralari ham go‘yo tirikdek tasvirlanib, inson ruhiyati bilan uyg‘un holda beriladi.

Filologiya fanida “peyzaj” hodisasiga ta‘rif berishda turlicha yondashuvlar mavjud: uni “tabiat tuyg‘usi” tushunchasi yoki asardagi alohida xarakter bilan aniqlashdan tortib, mustaqil janrga ajratishgacha. Odatda, peyzajning u yoki bu adabiy oilaga mansubligi, tashqi ko‘rinish davri, uni yaratgan muallifning yo‘nalishi va uslubi hisobga olingan holda ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, aksariyat adabiy manbalarda ta‘kidlanishicha, XVIII asrgacha matndagi peyzaj faqat xronotopik funksiyaning tashuvchisi bo‘lib, badiiy asarning harakati sodir bo‘ladigan fon rolini o‘ynagan va vaqtinchalik va o‘ziga xoslikni kiritgan. Badiiy matnda peyzajdan foydalanish doirasi sezilarli darajada kengaydi va XIX-XX asrlar adabiyotida peyzajning o‘zi keng funksional yuklamaga ega bo‘ldi. Ilm-fan “adabiy peyzaj” hodisasining ko‘lami va ta‘rifi bo‘yicha turli nuqtayi nazarlarni taqdim etadi: keng talqin ushbu konsepsiyaga har qanday tashqi dunyoning ochiq makonining tavsifini, shuningdek, interyerning tasvirini, tor talqin peyzajni “tabiiy ko‘rinishlar” bilan cheklaydi. Ushbu tushunchaga ta‘rif berishga qaratilgan ko‘plab urinishlarni sarhisob qilar ekanmiz, peyzaj badiiy asardagi tabiat tasviri bo‘lib, adabiy janr, uslub va davrni aks ettiruvchi, matnda turli funksiyalarni bajaradi.

Shukur Xolmirzayevning adabiy matn tuzilishidagi peyzajni o‘rganish muammosi bilan bog‘liqligi tasodifiy emas: yozuvchi haqli ravishda peyzaj rasmining ustasi hisoblanadi. Shukur Xolmirzayev peyzaji nafaqat o‘zbek tabiatining milliy o‘ziga xosligini aks ettiradi, balki borliq sirini ham o‘z ichiga oladi. Yozuvchining tasviriy iste‘dodining kelib chiqishi o‘z ona yurtining tabiati,

o'sha vohada joylashgan, eng boy o'zbek tili shakllangan va Shukur Xolmirzayev boshchiligidagi deyarli barcha eng buyuk o'zbek yozuvchilari joylashgan Surxondaryo viloyati bilan bog'liq.

Shukur Xolmirzayevning ko'plab peyzaj-ekspozitsiyalarida yo'l motivi paydo bo'ladi, bu adabiyotda "bog'lanish nuqtasi va voqealar joyi"¹ sifatida an'anaviy ahamiyatga ega. Voqealar o'rni, so'ngra manzara hikoyaning fonini tavsiflovchi vositadan syujetni rivojlantirish vositasiga aylanadi: "Biz tapir-tapir qilib tashqariga chikdik. Ixtiyorsiz bir tarzda bilardikki, bu qush bora-bora tag'in bir daraxtga qo'nadi. Unga odamlarning ko'zlari tushadi: tabiiyki, uni tutishga harakat qilishadi. Nima uchun?

O'zlari ham bilmasa kerak. Ha-ha, biz ham unga ega bo'lishni istardik, xolos.

Qishloq biz turgan yerdan uch chaqirimlar etakda edi, Loy kechib, jo'nadik. Qaysimiz qishloqqa oldinroq yetsak, osmon qushi o'shaniki bo'ladigandek. Ha, yiqilib-surinib deng, tomida lolaqizg'aldoqlar ochiladigan ilk kulbalarga yetdik.

Qush yo'q edi. Soylikkacha cho'zilgan xonadonlar, tor ko'chalardan burgutning biron-bir joyga qo'nganidan darak berguvchi shovqin-suron ham eshtilmasdi."² (tomida lolaqizg'aldoqlar ochiladigan ilk kulbalar(ya'ni usti loy bilan suvalgan uy tomlarida bahorda muntazam yog'ingarchilik sabab lolaqizg'aldoq ochilgan), Soylikkacha cho'zilgan xonadonlar, tor ko'chalar. XX asr haqiqiy Boysun qishloqlari ko'rinishi. Ijodkor bu rasmlarni chizish orqali Milliy kolorit³ yaratish vazifasini o'z oldiga qo'ydi.

Yozuvchining hikoyalarida asosiy harakat sahnasi va asosiy tabiiy "personaj" dasht, soy, tog', dara, jarlik, qir-adir, o'rmon(archazor) bo'lgan manzaralar negadir hukmronlik qiladi: "Bandi Burgut", "og'ir tosh ko'chsa", "...Bir ko'rgan tanish", "Ko'ngil", "Jarga uchgan odam" "Uchunchi hamroh", "Kulgan bilan kuldirgan" va boshqa ko'plab hikoyalari bunga misol bo'ladi. "Ertasi tongda qora eshagiga bir xurjunu bir qop donni ortgan Ehson E'tiborov paltosiga o'ralib, quloqchinini tushirgancha qishloqdan chiqib ketdi, ro'parada oppoq qorga burkangan tog' uyqusirab ko'rinar edi. Tabiiyot o'qituvchisi tog' ungurlarida, daralarida, jarliklarida kechgacha yurib, o'ndan ortiq kamarga don sochdi".⁴ Ijodkor uzoq vaqtlar bu manzaralar bilan birga o'sgan - uning asarlari bunga ishonch hosil qiladi. Biz ularni barini tog'lar, o'rmonlar, hayvonot-u parrandalar — umuman, Boysuntog' bag'ridagi tabiat boyliklari bilan birga o'sganligi bilan izohlaymiz.

"Sahar edi, qishlokda xo'rozlar qichqirar, hovlilardan erkak ovozlari eshitilardi. Qishloq orqada qoldi. Yo'lovchilar qishloq chetidagi korezni chetlab, yon bag'riga tushdilar, izg'irinda eshaklarni g'izillatib keta boshladilar. Endi tog' qushlari, jonzotlari ham uyg'ongan edi; chuldirab mullato'rg'ay uchadi, havoda qanot qoqib, keskin pasayadi; narida qattiq ovoz chiqarib jir-jir qushi uchadi. It beparvo, eshaklarga yondash ketyapti, goho uchgan qushlar ovoziga diqqat qilib, shalpang quloqlarini dikkaytiradi, hamrohlari ma'nodor qaraydi, so'ng yana lo'killab yo'lida davom etadi. Yo'lovchilar daraga kirishdi, atrof g'ira-shira yorug' bo'lib, daraning metin qoyalari xayoliy soya tashlab turardi, qoq toshga tushgan eshak tuyokdari sasi jaranglab ketadi. Yo'lovchilarning «ix-ix» deganlari ham odatdagidan baland eshitiladi. Daradan chiqib, to'lqin adirlarga o'rlashadi; so'qmoq yo'l chuqur bo'lib ketgan, tuyoqlar tagidan chang ko'tariladi, shamol

¹ Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. - М.1986. - . Б.276.

² Танланган асарлар:Хикоялар. –Т.: “Шарқ”2020. –. Б. 641

³ Себина Е Н Указ соч –. Б. 269.

⁴ Танланган асарлар:Хикоялар. –Т.: “Шарқ”2020. –. Б. 165.

qayoqqa essa, o'sha yoqqa buriladi va har tarafda sochilib o'sgan ayiqtovonning sariq taxir hidli gullariga qo'nadi. Unda-bunda archalar uchray boshladi, ularning yon-beri kemptik, yo'lovchilar duch kelgan shoxlarini sindirib ketishgan. G'adir-budir tog' yo'li boshlandi. Endi so'qmoq archalar orasidan o'tadi, eshaklar ustidagi xurjun shoxlarga tegib silkitadi, archaning rohatbaxsh bo'yi anqib ketadi, Goho yo'lovchilarning biri archaning butog'ini sindirmoqchi bo'ladi, biroq chayir daraxt tob bermaydi, yo'lovchining qo'lida bir hovuch nina barglari qoladi, yo'lovchi shu barglar bilan ham qanoat topadi, ularni hidlab ketaveradi, so'ng tashlab yuboradi, ammo kaftdagi hid qoladi. Yo'lni kesib, archa tomirlari o'tgan, turli shaklda, eshaklar ularga to'qnashmaslik uchun oyoqlarini ko'tarib-ko'tarib bosadi...".⁵

Shubhasiz, Shukur Xolmirzayev asarlarida ma'lum tabiiy-makon tasvirlari (dasht, dara, tog'lar, osmon va yulduzlar, o'rmon va archa daraxtlari va boshqalar) prinsipial jihatdan muhim rol o'ynaydi. Takroriy va o'zgaruvchan, ular peyzaj leytmotivlarini yaratadilar. Shukur Xolmirzayev matnlarining yagona xronotopik konturini shakllantirishda ishtirok etadilar. Yuqorida tilga olingan hikoyatlardagi tabiatning ramziy suratlari ontologik motivlar bilan singdirilgan.

Yozuvchining ilk hikoyalaridagi tabiat, bir tomondan, ma'lum bir o'z-o'zini ta'minlovchi xususiyatga ega, u insondan mustaqil holda mavjuddek tuyiladi. Boshqa tomondan, hatto xronotopik peyzaj parchalarida ham bevosita yoki bilvosita xarakter dunyosi, uning ongi, tabiat olami sirlari, uning qonuniyatlari va ritmlarini inson hayoti bilan bog'lash istagi namoyon bo'ladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari poetikasining o'ziga xos xususiyati - bu dunyoga shaxsiy, sub'ektiv qarash, tez o'tadigan, doimiy o'zgarib turadigan hayot lahzalarini so'zda iloji boricha tabiiy ravishda tasvirlash, o'tkinchi taassurot qoldirish istagi; inson hayoti va tabiatini solishtirishga asoslangan yashirin assotsiatsiya tamoyilidan foydalanish.

Birinchi navbatda, yo'lning motivi bilan bog'liq bo'lgan va bilvosita Boysun xalqining mentalitetini tavsiflovchi dasht va dala qiyofasidir.

"Uchinchi hamroh" hikoyasidan keltirilgan ushbu manzaralar haqida qisqacha ta'kid: Tabiat, har doimgidek, so'zlar, ranglar, tovushlar va hidlarning eng yuqori tejamkorligi bilan ikki-uch zarbada tasvirlangan. Faqat zarur bo'lgan narsa, faqat to'g'ridan-to'g'ri nuqtaga boradi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida eng ko'p uchraydigan tabiat tasviri kunning o'tish davrining tavsiflari; yozuvchi oqshomning tunga, quyosh botishiga, shom vaqtiga, tong otishiga e'tibor beradi. Xuddi shunday manzaralar "Og'ir tosh ko'chsa", "Tikan orasidagi odam", "Jarga uchgan odam", "Sog'inch", "...Bir ko'rgan tanish", hikoyalarida ham uchraydi: "Ismoil Yusupovich ayiqdan besh qadamcha berida to'xtab, unga tikildi. O'q uning manglayini yorib ketgan edi. Islom botayotgan quyosh shu'lasi bir yelkasini qizartirgan holda, sekin yurib, ayiq boshiga keldi."⁶; "Tong ham otib qoldi.

Xronotopik peyzajning bir qismi sifatida yozuvchining hikoyalarida tabiatning tungi tasvirlari, qoida tariqasida, qandaydir takrorlanuvchi "tabiiy unsurlar"ga ega bo'ladi:

1) tun obrazida, odatda, uning sirililigi, tasavvufiga urg'u beriladi;

2) peyzaj tavsifning rang palitrasi (ranglar tanlash va ishlatish) o'zgarishini aks ettiradi: tun qorong'iligi ranglarni yumshatadi, hamma narsani yengil parda bilan qoplaydi - shuning uchun

⁵ Танланган асарлар:Хикоялар. –Т.: “Шарқ”2020. –. Б. 153.

⁶ Танланган асарлар:Хикоялар. –Т.: “Шарқ”2020. –. Б. 138.

rang sifat darjalari ishlatiladi (qora tusda, Timqorong'i, qizg'ish, qontalash, qora tusda, Osmon oqish, qoramtir; va ayrim fellar bilan: Qosh qoraygan, oqardi, yorishdi, qizardi;

3) Ijodkor hikoyalaridagi tun obrazini bizga qayta-qayta eslatib turadigan yana bir hodisa (itlarning hurayotgani, eshakning hangrayotgani, Dakangxo'roz qichqirishi, baqalar qurillashi, Hasharotlar qo'shig'i, tun qushining «hut-hut—hut-hut!» degan sayrash va umuman qushlar tovushi . Va boshqa) tovushlarning uyg'unligi;

4) Tasvirning diqqat markazida deyarli har doim osmon (ko'pincha tog' jinslari bilan uyg'unlashtirilgan), oy va ko'plab yulduzlar fe'llar yordamida tasvirlangan;

5) Ko'pincha peyzajda tumanning tasviri mavjud bo'lib, u tabiiy makonni noaniq tuman bilan o'rab turganga o'xshaydi.(oqish tuman);

5) Shamol ham tun obrazida munosib o'rin olgan(archazordan sovuq shamol esar, izg'irinda eshaklarni g'izillatib keta boshladilar, bir mahal tog'dan sovuq shamol esadi).

Ijodkor chizgan(Biz tatqiqotimiz davomida faqat ilmiy manbalarga tayanibgina qolmay, o'sha mashhur Boysuntog' kengliklarini oyoq va qo'l ostida his qilishga urindik) tog' va qirlar , qishloq, ko'chalar va uylar(kekxa tollarga ko'milgan uylar, o'rmon va bog'lar(dala – shiypomiz-u, loy suvoq uylarimizni, gilamkigiz, buyralarimiz-u ko'rpachalar) va qahramonlarining tashqi ko'rinishi mahalliy elementlarga o'xshaydi. Qattiyatlilik va mehribonlik, tafakkur va g'ururlilik, samimiylik va, ayniqsa, mehmondo'stlik - inson shaxsiyatida o'ziga tanish muhitda shakllangan turli xil tamoyillar birlashdi.

Matnning tarkibiy va mazmuniy tashkil etilishida peyzajning funksional ahamiyati nihoyatda keng bo'lishi mumkin: tabiat tasvirlari ko'pincha asarning syujeti va kompozitsion qurilishida alohida rol o'ynaydi. Bu birinchi navbatda, peyzajning portret bilan bir qatorda interyer va boshqa elementlarning tavsifi, matnning ichki kompozitsiya maydoniga tegishliligi, shuningdek, uning tasviriy bo'lish qobiliyati bilan izohlanadi. Hamda harakatni rivojlantirish va voqealar rivojini u yoki bu yo'nalishda bashorat qilish yoki yo'naltirish vositasidir.⁷

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining bir qator hikoyalarda peyzajning vazifasi harakat joyi-vaqti haqidagi xabar yoki qisqacha ekspozitsiya elementidan ancha kengroqdir. Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi peyzaj matnning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, badiiy voqelikni yaxlit idrok etishni ta'minlaydi va asar kompozitsiyasini tashkil etishda ishtirok etadi. Shu bilan birga, uning syujet-kompozitsiya tizimidagi vazifalari ham turlicha bo'lib, asarning janri, tuzilishi va g'oyaviy-tematik yo'nalishiga bog'liqdir. Shunday qilib, hukmron hodisa-rivoyat boshlanishi bo'lgan matnlarda peyzaj, masalan, ekspozitsiya, harakatni rivojlantirish yoki syujetni motivatsiya qilish usuli sifatida ishlatiladi. Bir qator falsafiy hikoyalarda peyzaj avjining urg'usi vazifasini bajaradi yoki matnni yakunlashning samarali usuli bo'lib, o'quvchining mulohaza yuritishi uchun joy qoldirib, cheksiz tabiiy olam obrazini yaratadi. Shu bilan birga, yozuvchi nasrida peyzaj badiiy voqelikning mustaqil tarkibiy qismi sifatida harakatni rivojlantirish vositasi emas, balki ba'zan janr bilan izohlanadigan kechikish rolini ham o'ynaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. - М.1986

⁷ См. об этом: Себина Е.Н. Пейзаж // Чернец Л.В. (ред.) Введение в литературоведение: Учеб. пособие. - М..2004.- с.266

2. Танланган асарлар:Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020
3. Себина Е Н Указ соч
4. См. об этом: Себина Е.Н. Пейзаж // Чернец Л.В. (ред.) Введение в литературоведение: Учеб. пособие. - М..2004